



NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV YONDASHUV: BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA

Ziyoyev Shuhratxon Shokirovich,

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 4-maktab logoped o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 47

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1489>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

inklyuziya, boshlang'ich ta'lim, nutqni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar, kommunikativ kompetensiya, differensiat-siya, multimodal yondashuv, vizual tayanchlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf sharoitida nutqni rivojlantirish jarayoniga inklyuziv yondashuvning mazmuni va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, kommunikativ ehtiyojlari hamda ta'lim muhitini moslashtirish omillari tahlil qilinadi. Nutqni rivojlantirishda individual yondashuv, differensial topshiriqlar, vizual tayanchlar, multimodal mashqlar va hamkorlikda o'qitishning ahamiyati asoslanadi. Maqola natijalarida inklyuziv sinfda nutqni rivojlantirish samaradorligini oshiruvchi metodik shartlar va tavsiyalar tizimi taklif etiladi. Maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida nutqni rivojlantirish jarayonining psixologik, lingvistik va ijtimoiy omillari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida maxsus ehtiyojli o'quvchilarning fonematik idroki, lug'at boyligi, bog'lanishli nutqi hamda ijtimoiy-kommunikativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalar tizimlashtiriladi. Inklyuziv muhitda "tengdoshlar ta'siri" (peer effect) omilining nutqiy faollikka ko'rsatuvchi ijobiy ta'siri ilmiy manbalar asosida asoslanadi. Shuningdek, maqolada raqamli ta'lim vositalari, interaktiv o'yinlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va multimodal texnologiyalar integratsiyasi orqali nutqiy kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Taklif etilgan metodik tavsiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, logopedlar hamda inklyuziv ta'lim amaliyotchilari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kirish. Zamonaviy maxsus pedagogika ilmda "nutqning umumiy rivojlanmaganligi" tushunchasi qo'llanilib, mazkur tushuncha nutq tizimining barcha komponentlari (fonetik, leksik, grammatik va sintaktik) yetarlicha shakllanmaganini anglatadi. Bunday holat, odatda, og'ir nutqiy nuqsonlari bo'lgan bolalarda kuzatilib, ularda tovushlarni talaffuz qilish hamda nutqning grammatik tuzilishi yetarli darajada shakllanmagan, lug'at boyligi cheklangan bo'ladi. Xususan, *psixik rivojlanishi sust bolalar* nutqida so'zlarning ma'nosini to'liq tushunmaslik, mavhum tushunchalarni anglatmaslik hollari uchraydi. Bu holatda bolaning so'z boyligi miqdor jihatidan boy ko'rinsa-da, aslida u so'zlarni shunchaki mexanik ravishda takrorlaydi, ammo ularning mohiyatini anglamaydi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarda so'z boyligi amaliy va hissiy tajribaga (ko'rish, ushlar, hidlash, his qilish) tayanmasa, nutq o'stirish jarayoni samarasiz bo'ladi. Deylik, bola "nok" so'zini bilishi mumkin, lekin uning shakli, ta'mi va tabiatdagi o'mini tasavvur qilolmasa, bu bilim uning rivojlanishi uchun foydasizdir. Sababi nutq o'stirish bolaning xotirasini faqat yangi so'zlar bilan to'ldirish emas, balki uning ongida dunyoning aniq manzarasini yaratishdir. Shu ma'noda ta'limda asosiy e'tibor so'zni yod oldirishga emas, balki uni tushuncha darajasida o'zlashtirilishi, har bir so'zni obrazlar va mantiqiy zanjirlar bilan boyitishga qaratilishi zarur, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar sharhi. Nutqiy rivojlanish muammolarini o'rganishda kommunikativ kompetensiya tushunchasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Amerikalik olim Dell Hymes kommunikativ kompetensiyani nafaqat grammatik bilim, balki nutqiy vaziyatga mos ravishda til birliklaridan foydalana olish qobiliyati sifatida talqin etadi¹. Ushbu yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida nutqni rivojlantirish jarayonini faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Maxsus pedagogika doirasida nutq buzilishlarini kompleks o'rganish masalasi rus logopediya maktabida chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, R. E. Levina nutq buzilishlarini tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, fonetik, leksik va grammatik komponentlarning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab bergan². Olimaning ta'kidlashicha, nutqning umumiy rivojlanmaganligi tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, korreksion ishlar kompleks xarakterga ega bo'lishi lozim.

Logopedik tadqiqotlarda nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari L. S. Volkova tahriri ostida chop etilgan darslikda batafsil yoritilgan bo'lib, unda nutqiy faoliyatni shakllantirishda bosqichma-bosqichlik, differensial yondashuv va ko'rgazmalilik tamoyillari muhimligi ta'kidlanadi³. Ayniqsa, inklyuziv sinf sharoitida individual ta'lim yo'nalishini belgilash zarurati alohida qayd etiladi.

Neyropsixologik yondashuv nuqtayi nazaridan A. R. Luria nutqni insonning ixtiyoriy faoliyatini boshqaruvchi markaziy mexanizm sifatida izohlaydi. Uning fikricha, nutq buzilishlari miya funksional tizimlaridagi uzilishlar bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida rejalashtirish va nazorat jarayonlariga ta'sir qiladi⁴. Mazkur nazariya boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy qiyinchiliklar ta'limiy faoliyat samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan esa tengdoshlar bilan munosabat va ijtimoiy qabul qilinish darajasi nutqiy faollikka bevosita ta'sir etadi. S. R. Asher olib borgan tadqiqotlarda bolalarning tengdoshlari tomonidan rad etilishi ularda ijtimoiy chekinish va kommunikativ passivlikni kuchaytirishi ko'rsatib berilgan⁵. Bu holat inklyuziv ta'lim muhitida psixologik xavfsiz muhit yaratishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, maxsus ta'lim tizimining evolyutsiyasini tahlil qilgan N. N. Malofeev inklyuziv yondashuvni jamiyatning o'zi moslashuvchan tizimga aylanish jarayoni sifatida talqin qiladi⁶. Olimning fikricha, zamonaviy ta'lim tizimi "standart o'quvchi" modelidan voz kechib, har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan mexanizmga aylanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy faoliyatning buzilishi (afaziya, disartriya), bog'lanishli nutq muammolarini kompleks yondashuv asosida o'rganan neyropsixolog A.R.Luriya esa buni quyidagicha tushuntiradi: "Nutq insonning ixtiyoriy faoliyatini boshqarishda markaziy rolni o'ynaydi. Shuning uchun nutq buzilishlari miya funksional tizimlarining ham buzilishiga olib keladi"⁷. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bu holat juda aniq ko'rinadi: deylik, bola masalani yechishda "avval shartni o'qiyman, keyin nima so'ralganini tushunib olaman, so'ng uni yeshich usulini tanlayman" kabi ichki reja tuza olmasa, u tez chalg'iydi, xatoni ko'rmaydi yoki oxirigacha yetkaza olmaydi. Ya'ni nutqiy muammolar o'qish, yozish, tushunish, o'zini boshqarish kabi ta'limiy faoliyatning ham umumiy samaradorligiga ta'sir qiladi. Chunki nutq insonning rejalashtirish, nazorat qilish,

¹ Hymes D. H. On Communicative Competence. In: Pride J. B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics: Selected Readings. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269-293.

² Левина Р.Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – М.: Просвещение, 1967. – 208 с.

³ Логопедия: учебник для вузов / под ред. Л. С. Волковой. – М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2006.

⁴ Лурья А.Р. Основы нейropsychологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2003.

⁵ Asher S. R. Peer rejection and loneliness in childhood / S. R. Asher, J. G. Parker // Child Development. – 1989. – Vol. 60, № 5. – P. 145–158.

⁶ Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом: в 2-х частях. Часть 1: Западная Европа / Н. Н. Малофеев. – М.: Просвещение, 2009. – 469 с.

⁷ Лурья А.Р. Основы нейropsychологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2003.

diqqatni boshqarish, xotirani ishlatish kabi ongli xatti-harakatlarini boshqaradigan ichki boshqaruv vositasidir. Tajribadan ma'lumki, bunday bolalarda diqqat va ishchi xotira zaif bo'lishi mumkinligini hisobga olib, nutqni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda topshiriqlar vaqtini uzaytirish, murakkab vazifalarni kichik qismlarga bo'lish, yangi ma'lumotni bir nechta sezgi analizatorlari (vizual + audial + kinestetik/taktik kombinatsiyasi) orqali yetkazib berish, ko'proq takror va mustahkamlashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda rolli o'yin elementlari, "chunki", "shuning uchun", "avval", "so'ng" bog'lovchilari yordamida kichik matn tuzish topshiriqlari, "o'qi-top-belgila-tekshir" usulidagi rasmlar kartochkalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Natijalar. Eshitishda nuqsoni bor bolalarda gap mazmunini tushunmaslik ham nutqiy muammolardan biri sanaladi. Bunday bolalar faqat ko'z oldida turli ko'rgazmali tasvir mavjud bo'lgandagina so'zlarni to'g'ri tushunishga moyil bo'lib, mavhum tushunchalarni idrok etishi juda qiyin kechadi. Ular ko'pincha kattalar aytayotgan gapning mazmunini to'liq idrok eta olmaydi. Ilmiy adabiyotlarda buning asosiy sababi leksik zaxiraning cheklanganligi emas, balki grammatik ko'rsatkichlarning (qo'shimchalar, bog'lovchilar) tushib qolishi natijasida mantiqiy zanjimining uzilishi ekanligi tushuntiriladi. Ya'ni bola gapdagi asosiy "predmet"ni tushunishi mumkin, lekin u bilan sodir bo'layotgan "harakat"ning vaqt, shart yoki maqsad munosabatlarini ilg'ay olmaydi. Qolaversa, bunday bolalarda og'zaki nutqning shakllanishi sust bo'ladi. Fonematik idrok va talaffuz o'rtasidagi bog'lanish yetarlicha shakllanmagani sababli tovushlarni noto'g'ri aytish, chalkashtirish kabi muammolar kuzatiladi. Agar maxsus surdopedagogik yondashuv orqali og'zaki nutqni idrok etish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib borilmasa, ikkilamchi nutqiy nuqsonlar vujudga kelishi mumkinligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlangan. Milliy surdopedagogikada U.Y.Fayziyeva, F.U.Qodirova kabi olimlar eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda og'zaki nutqni shakllantirish masalalarini chuqur o'rganib, muhim ilmiy xulosalar chiqarganlar. Jumladan, U.Fayziyeva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida zaif eshituvchi bolalarni savodga tayyorlash va nutq o'stirish masalalarini yoritgan bo'lsa, F.Qodirova boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini shakllantirish mavzusida maxsus tadqiqot o'tkazib, eshitish bo'yicha turli darajadagi nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish usullarini ishlab chiqqan.

Jismoniy imkoniyati cheklangan, harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bor bolalarda ham psixologik omillar tufayli muloqotda tortinish, o'z fikrini to'liq ifodalay olmaslik kabi muammolar kuzatiladi. Professor V.L.Samoxvalova o'z tadqiqotlarida "nogironligi bor bolalar jamoadoshlari tomonidan kamsitilgani va chetlashtirilgani uchun doimiy ravishda o'z nuqsonlarini yashirishga intilishlari va iloji boricha muloqotdan qochishlarini" yozadi. Shu sababli suhbatdoshi qarshisida tinimsiz o'ylanish, fikrlarini to'liq bayon eta olmaslik kabi muammolar paydo bo'ladi. Ichki himoya mexanizmlari tufayli muloqotda passiv bo'ladi, kamroq gapirishga harakat qiladi yoki salbiy xulq-atvor ko'rsatishlari ham mumkin.

Nogiron bolalarning kommunikatsiya va ruhiy holatidagi buzilishlar yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borgan S. Asher ham shu xulosalarni tasdiqlaydi: "Muvaqqiyatsizlikka uchrash ko'rquvi muloqotdan butkul chekinishga, doimiy emosional stress esa ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishning qiyinlashishiga olib keladi"⁸. Natijada o'quvchi atrofdagilarning ehtimoliy tanqididan cho'chib, nutqiy muloqotni boshlashdan bosh tortadi va o'z fikrini bayon qilishda "ijtimoiy passivlik" strategiyasini tanlaydi. Bunday holat, tabiiyki, bolaning intellektual salohiyati to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi, jamoaviy bilim almashish jarayonidan uzilib, aytmoqchi bo'lgan fikrlari faqat ichki monolog doirasida qolib ketadi.

Ko'rinadiki, jismoniy nogironligi bo'lgan o'quvchilarda nutqiy faoliyatni shakllantirish jarayoni faqatgina lingvistik mashqlar bilan cheklanib qolmay, balki chuqur psixologik korreksion yondashuvni talab etadi. Pedagoglar ushbu toifadagi bolalar bilan ishlashda, eng avvalo, psixologik xavfsiz muloqot muhitini yaratish tamoyiliga tayanishlari lozim. Bunda asosiy e'tibor bolaning nutqidagi nuqsonlarga emas, balki uning fikr bayon qilish mazmuniga, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga qaratiladi. Bu yondashuv o'quvchidagi muvaqqiyatsizlik ko'rquvini sindirish va o'z nuqsonidan uyalish hissini bartaraf etishda fundamental ahamiyatga ega.

Muhokama. Maxsus ehtiyojli bolalarga ta'lim berish, jamiyat va umumta'lim muhitiga integratsiya qilish borasida tarixan ikki xil yondashuv mavjud⁹.

Birinch yondashuv *moslashtiruvchi (kompensator) model* bo'lib, unda imkoniyati cheklangan bolani mavjud muhit talablariga

moslashtirishga urg'u beriladi. Bu tor va bir yoqlama yondashuv bo'lib, bunda mas'uliyat asosan bolaning o'ziga yuklatilib, uning jamiyatga moslashishi kutiladi.

Ikkinchi yondashuv *moslashuvchi jamiyat modeli*. Bunda nafaqat bolani, balki jamiyatning o'zini ham maxsus ehtiyojli bolani qabul qilishga tayyorlash nazarda tutiladi. Zamonaviy inklyuziv ta'lim ana shu ikkinchi, keng qamrovli yondashuvga asoslanadi. Ya'ni maktab jamoasi, undagi muhit, o'quv dasturlari va ta'lim metodlari bolalarning turli xususiyatlariga mos ravishda o'zgartiriladi.

Inklyuziya sharoitida ijtimoiy adaptatsiya – bu nafaqat bolaning jamiyat talablariga moslashuvi, balki jamiyatning ham bolaga moslashuvi, o'zaro hamkorlikda yangicha ta'lim shaklini yo'lga qo'yishdir. Bu jarayonda jismoniy yoki nutqiy nuqson bolani jamiyatdan ajratib qo'yish uchun asos bo'lolmaydi, aksincha, to'g'ri ijtimoiy muhit va pedagogik vositalar yordamida bunday bolalarning mavjud salohiyatini rivojlantirish va kompensator imkoniyatlarini ishga solish mumkin bo'ladi. Inklyuziv ta'lim bolalarga shunday ijtimoiy maydon yaratadiki, unda nutq nuqsoniga ega o'quvchi muloqot jarayoniga jalb etilib, o'z tengdoshlari ko'magida va o'qituvchi yordami bilan nutqini rivojlantirishi va jamoadagi rolini topishi osonlashadi.

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi ko'p jihatdan maktabdagi pedagogik omillarga bog'liq. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni hayotga tatbiq etishda o'qituvchining roli hal qiluvchi omildir. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlar inklyuziya muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Jumladan, Rossiya tajribasida pedagog kadrlar uchun professional standart ishlab chiqilib, unda har bir o'qituvchi "bolalarning qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va nogironlik darajasidan qat'iy nazar, barchasini birdek o'qita olishga tayyor bo'lishi" belgilangan. Mazkur kasbiy talablardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining ham psixologik, ham metodik bilimlarga ega bo'lishi, maktabda ijobiy, ijtimoiy moslashuvchan muhitning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

UNESCO hujjatlarida ta'kidlanishicha, ushbu omillar nogiron bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Sinfda do'stona munosabat shakllansa, nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchi o'zini keraksiz his qilmaydi va muloqotga kirishishdan tortinmaydi. Shu bilan birga, ota-onalarning maktab hayotidagi ishtiroki, defektolog-logopedlarning maktab jamoasi bilan hamkorligi kabi omillar ham bolalarning tezroq moslashishiga ko'mak beradi. Shu tariqa ta'lim tizimi "bir xil bolalar uchun moslangan standart tizimdan har xil bolalarga moslashuvchan tizimga o'tadi".

Tadqiqotimiz doirasida nogiron bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish va bu yondashuvning nutqiy ko'nikmalariga ta'siri masalasini xorij tajribasi misolida ham o'rgandik. Ma'lumki, xalqaro miqyosda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga doir huquqlari inklyuzivlik va kamsitmaslik tamoyillari bilan mustahkamlangan. Jumladan, UNESCOning Salamanka bayonotida qayd etilishicha, inklyuziv ta'lim metodologiyasi har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos ta'lim yo'li mavjudligini tan oladi va an'anaviy ta'limni barcha bolalar uchun moslashtirishni nazarda tutadi. AQShda o'tkazilgan 496 nafar boshlang'ich sinf yoshidagi nogiron bolalarni qamragan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, inklyuziv guruhlarda tahsil olgan jiddiy nogironligi bo'lgan bolalar segregativ (alohida) guruhdagilarga nisbatan nutqiy rivojlanish va ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha yuqori natijalarga erishgan. Bu farq ayniqsa, nuqsoni og'ir bolalarda yaqqol namoyon bo'lgan. Professor Y. Rafferty boshchiligidagi mazkur tadqiqot mualliflari inklyuziv muhitda bolaning nutqiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar ko'pligini ta'kidlagan. Oddiy bolalar bilan teng muloqot zarurati ularni ko'proq gapirishga, yangi so'z va iboralarni o'rganishga undaydi. "Peer effect" (Tengdoshlar ta'siri) nazariyasi asoschisi Laura Justice tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda ham "bola faqat o'zi kabi nuqsoni bor bolalar orasida bo'lsa, u noto'g'ri nutq namunasini o'zlashtirishi" isbotlangan. Tadqiqotchi sog'lom tengdoshlarining nutqiy darajasi nutqida nuqsoni bor bolaning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri va ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim stimulyator ekanligini ilmiy asoslab bergan. Inklyuziv ta'limning psixolingvistik va ijtimoiy asoslarini tadqiq etgan amerikalik professorlar S.Odom va K.Diamond nutqiy ko'nikmalarga ijobiy ta'sir etuvchi bir necha omillarni tadqiq etib, quyidagi xulosani ilgari surganlar: "Inklyuziv ta'lim muhitida psixologik to'siqlarning bartaraf etilishi imkoniyati cheklangan bolalarda "Men boshqacha gapiraman" degan qo'rquv o'rmini "Meni tushunishyapti" degan qat'iy ishonch egallashiga zamin yaratadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy-

⁸ Asher S. R. Peer rejection and loneliness in childhood / S. R. Asher, J. G. Parker // Child Development. – 1989. – Vol. 60, № 5. – P. 145–158.

⁹ Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом: в 2-х частях. Часть 1: Западная Европа / Н. Н. Малофеев. – М.: Просвещение, 2009. – 469 с.

kommunikativ ishonch” konsepsiyasi bugungi kunda dunyo surdopedagogikasining metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda¹⁰.

Jahonda nutq terapiyasi yo‘nalishida ko‘plab metodlar ishlab chiqilgan bo‘lib, artikulyatsion gimnastika, fonetik og‘ishlarni tuzatish mashqlari, vizual hamda audio materiallardan foydalanish shular jumlasidan. Ayniqsa, AQSh va Yevropada nutqiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan shug‘ullanuvchi logopedlar turli multimedia vositalari va ta’limiy o‘yinlarni qo‘llash orqali ularning lug‘atini boyitish va talaffuzini yaxshilashga erishmoqdalar. Xususan, Buyuk Britaniyada olib borilgan tadqiqotlar kichik yoshdagi bolalarga she‘rlar va topishmoqlar aytib berish ularning fonologik qobiliyatini kuchaytirishini ko‘rsatgan. Bola qiziqarli hikoyalarni eshitish va takrorlash jarayonida tovushlarni farqlash, ritm va urg‘uni his qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu ilmiy farazni P. Brayant va L. Bradley kabi olimlar o‘zlarining longitüd tadqiqotlarida tasdiqlaganlar. Ya’ni bolaligidan xalq qo‘shiqlari va she‘rlarini tinglab, yod olib o‘sgan bolalar 6-7 yoshga kelib o‘qish va savodxonlik bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishgan, chunki ularda kichik yoshdanoq fonematik sezgirlik rivojlangan bo‘ladi.

Xulosa. Xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, imkoniyati cheklangan bolalar nutqini rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari anchayin yoritilgan bo‘lsa-da, hali ham ayrim jihatlar yetarli darajada

o‘rganilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Avvalo, raqamli ta’lim muhiti sharoitida bunday bolalarning nutqiy rivojlanishi qanday xususiyat kasb etishi, an’anaviy usullar, xususan, xalq og‘zaki ijodi materiallari bilan zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi samaradorligi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlilga muhtoj. Shu kungacha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, an’anaviy inklyuziv ta’lim va maxsus maktablar misolida, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish kontekstida o‘tkazilib, raqamli vositalarning roliga kam e’tibor qaratilgan. Bugun xalqaro miqyosda innovatsion yondashuvlar paydo bo‘lmoqda, hatto sun’iy intellekt yordami bilan nutq terapiyasi dasturlarini ishlab chiqish harakatlari boshlangan. Raqamli transformatsiya jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilib, sun’iy intellekt texnologiyalari nutqiy nuqsonlarni diagnostika va korreksiya qilishda eng istiqbolli innovatsion yondashuvga aylanmoqda. Biroq bu yangicha vositalarning aynan imkoniyati cheklangan bolalar nutqiga ta’sirini o‘rganish hozircha dastlabki bosqichda. Fikrimizcha, an’anaviy metodikaning samaradorligi pasaygan bugungi kungi raqamli ta’lim muhiti va xalq og‘zaki ijodi sintezi eng maqbul yechim bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli vositalar bolaning vizual va kinestetik idrokini faollashtirsa, folklor namunalari nutqiy materialni qabul qilishni zavqli jarayonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hymes D. H. On Communicative Competence. In: Pride J. B., Holmes J. (eds.) *Sociolinguistics: Selected Readings*. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269-293.
2. Левина Р.Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. – М.: Просвещение, 1967. – 208 с.
3. Логопедия: учебник для вузов / под ред. Л. С. Волковой. – М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2006.
4. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2003.
5. Asher S. R. Peer rejection and loneliness in childhood / S. R. Asher, J. G. Parker // *Child Development*. – 1989. – Vol. 60, № 5. – P. 145–158.
6. Малофеев Н. Н. Специальное образование в России и за рубежом: в 2-х частях. Часть 1: Западная Европа / Н. Н. Малофеев. – М.: Просвещение, 2009. – 469 с.

¹⁰ Hymes D. H. On Communicative Competence. In: Pride J. B., Holmes J. (eds.) *Sociolinguistics: Selected Readings*. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269-293.